

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

ABDULLAYEV YASHIN BAXROMOVICH

**YUQORI NAVLI PAXTANI SAMARALI TOZALASHDA VERTIKAL
AGREGATNING ISHCHI QISMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

05.02.03 – Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro - 2026

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

по техническим наукам

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Abdullayev Yashin Baxromovich

Yuqori navli paxtani samarali tozalashda vertikal agregatning ishchi qismlarini takomillashtirish..... 3

Абдуллаев Яшин Бахромович

Совершенствование рабочих органов вертикального агрегата для эффективной очистки высоких сортов хлопка..... 21

Abdullaev Yashin Baxromovich

Improvement of working parts of vertical unit for efficient cleaning of high-grade cotton..... 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 42

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

ABDULLAYEV YASHIN BAXROMOVICH

**YUQORI NAVLI PAXTANI SAMARALI TOZALASHDA VERTIKAL
AGREGATNING ISHCHI QISMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

05.02.03 – Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/T5924 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiyasi Buxoro davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.titli.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Usmanov Xayrulla Saydullayevich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Baxadirov G'ayrat Ataxanovich
texnika fanlari doktori, professor

Ibragimov Farxod Xayrulloevich
texnika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Jizzax politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.T.21.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil "14" may soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100100, Toshkent sh., Shohjahon-5, 1-bino, 222-xona tel.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08, faks: 253-36-17; e-mail: titlp_info@edu.uz).

Dissertatsiyasi ishi bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (293 -raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent sh., Shohjahon-5, tel.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati "28" aprel 2026 kuni tarqatildi.
(2026 yil "28" apreldagi №293-raqamli restr bayonnomasi).



X.H.Kamilova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

A.Z.Mamatov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

Sh.Sh.Xakimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda paxtani dastlabki ishlash korxonalarida paxtadagi iflosliklarni tozalash va undan sifatli tola olish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Dunyo bo'yicha har yili 24 mln tonna paxta tolasini ishlab chiqiladi, shu bois paxtadagi mavjud ifloslik va nuqsonlarni samarali, energiya va resurstejamkor tozalash zamonaviy uskunalarni ishlab chiqarishga joriy etilishi talab etiladi. Shu bois, paxtachilikni barqaror rivojlantirish, tarmoq korxonalarida energiyatejamkor zamonaviy asbob-uskunalarini joriy etish, urug'lik paxta xomashyosidan olinadigan chigit va kalta momiq mahsulotlari miqdorini oshirish ahamiyatli o'rin tutadi. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda jahon paxta tozalash sanoati korxonalarida yuqori samaradorlikka ega bo'lgan paxta tozalash uskunalarni modernizatsiya qilish hamda resurstejamkor ixcham konstruktiv yechimlardan samarali foydalanish alohida e'tibor berilmoqda.

Jahonda paxtani dastlabki ishlash korxonalarining texnika va texnologiyasini takomillashtirish, zamonaviy texnika vositalari va texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish imkoniyatlaridan samarali foydalanish darajasini oshirish, bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishlarda, jumladan, paxta tarkibidagi iflos aralashmalarni tozalash uchun ishlatiladigan uskunalarni takomillashtirish hamda resurstejamkor vertikal agregatlarni modernizatsiya qilish bo'yicha tadqiqotlar dolzarb hisoblanmoqda. Bu borada, paxtani iflos aralashmalardan tozalashning samarali uskunalarni, ishchi qisimlarning resurstejamkor konstruksiyalarini yaratish va paxtani tozalash jarayoniniga zamonaviy vertikal usullarni joriy etishga alohida e'tibor berilmoqda.¹

Respublikamizda paxtani dastlabki ishlash tarmog'ini rivojlantirish, paxta tozalash korxonalarini modernizatsiyalash, ishlab chiqarishni tashkil etishning zamonaviy shakllarini joriy etish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan, Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash yo'nalishida quyidagi ustuvor vazifalar belgilangan: "...to'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ikki baravarga ko'paytirish hamda sanoat tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish dasturlarini keng joriy qilish". Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, xususan, paxtani dastlabki ishlash texnologik jarayonlarini va ishlab chiqarishning yuqori samaradorlikka ega bo'lgan paxtani qayta ishlash mashinalari va jihozlarini yaratish hamda foydalanilayotganlarini modernizatsiyalash, yuqori navli paxtani samarali tozalashda vertikal agregatning ishchi qismlarini takomillashtirish, jumladan, qoziqchali-plankali barabanni hamda paxtani mayda iflosliklardan tozalash uchun to'rtli yuzaning ratsional konstruksiyalarini ishlab chiqish muhim masalalardan biri hisoblanadi. .

¹ (International cotton advisory committee. Washington, From the Secretariat of the ICAC. <https://icac.org/>, email secretariat@icac.org. October 7, 2019).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 22-iyuldagi PF-103-son “Paxtachilik sohasi korxonalarining iqtisodiy-moliyaviy holatini yaxshilashga oid chora-tadbirlar to‘qrisida”gi, 2023-yil 10-yanvardagi PF-2-son “Paxta to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, to‘qimachilik va tikuv trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-iyundagi 397-son “Paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda ushbu faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertasiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur ilmiy tadqiqot ishlari Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II. “Energetika, energiya va resurstejamkorlik” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Paxta tozalash uskunalari va ta‘minlovchi qurilmalarini takomillashtirish bo‘yicha bir qator chet el olimlari W.S.Anthony, R.M.Sutton, D.W.Van Doorn, B.M.Norman, R.V.Baker, P.A.Boving, J.W.Laird, T.S.Manojkumar, V.G.Arude, S.K.Shukla va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Paxtani mayda va yirik iflosliklardan tozalash texnika va texnologiyasi, asosiy ishchi qismlarning ko‘rsatkichlari va ishlash rejimlari hamda paxta tozalash agregatlarini takomillashtirish bo‘yicha bir qator olimlar, shu jumladan, G.I.Miroshnichenko, G.I.Boldinskiy, R.V.Korabelnikov, A.Rasulov, B.M.Mardonov, A.Y.Lugachev, A.Djurayev, Y.S.Sosnovskiy, A.A.Safayev, X.T.Axmadxojayev, R.M.Murodov, I.D.Madumarov, SH.SH.Xakimov, X.S.Usmanov, R.X.Rosulov, F.N.Sirojiddinov, A.P.Mavlyanov va boshqalar bu soha rivojiga munosib hissa qo‘shganlar.

Shunga qaramasdan, chet el va mahalliy paxta tozalash korxonalarida foydalanilayotgan paxta tozalash uskunalari, ayniqsa, paxtaning yuqori navlari uchun yaratilgan vertikal tozalash agregati hamda ularning ishchi qismlari tozalash samaradorliklarini oshirish muammolari ratsional yechimini topmaganligini ko‘rsatdi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PQ-307-son qarorining 7-ilovasiga muvofiq davlat ilmiy-texnika dasturlari asosida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi yuqori navli paxtani samarali tozalashda vertikal agregatning ishchi qismlarini takomillashtirish va ularning ratsional qiymatlarini aniqlash asosida agregatning tozalash samaradorligini oshirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

paxtani samarali tozalash texnika vositalariga oid ilmiy va texnikaviy ma‘lumotlar hamda shu yo‘nalishda bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini tahlil qilish;

yuqori navli paxtani tozalashda vertikal agregatning ishchi qismlarini paxtani mayda iflosliklardan tozalash samaradorligiga ta'sirini tahlil qilish.

qoziqchali-plankali baraban konstruksiyasini turli konstruksiyalarni tadqiq etgan holda tozalash jarayoniga ta'sirini o'rganish;

vertikal paxta tozalash texnologiyasida takomillashtirilgan qoziqchali-plankali baraban parametrlarini asoslash;

takomillashtirilgan qoziqchali-plankali baraban va to'rli yuzani ishlab chiqarish sinovlarini o'tkazish va uning iqtisodiy samaradorligini hisoblash.

Tadqiqotning obyekti sifatida yuqori navli paxtani samarali tozalashda vertikal agregatning mayda iflosliklardan tozalash seksiyasi olingan.

Tadqiqotning predmetini vertikal agregatning mayda iflosliklardan tozalash seksiyasi parametrlari, konstruksiyasi va geometrik o'lchamlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotlar jarayonida paxtani dastlabki ishlash nazariy va amaliy mexanika, matematik statistika usullaridan, solishtirish, baholash va maqsadli elektron dasturlar yordamida optimallashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tozalash samaradorligini oshirish imkonini beruvchi, vertikal agregatning mayda iflosliklardan tozalash seksiya konstruksiyasi yangi qoziqchali-plankali baraban va to'rli yuzani ishlab chiqish asosida takomillashtirilgan;

qoziqchali-plankali baraban ta'sir doirasida paxtani qisilishiga ta'sir qiladigan kuchlarni hisobga olgan holda takomillashtirilgan qoziqchali-plankali baraban parametrlarining qiymatlari aniqlangan;

paxtani mayda iflosliklardan tozalash samaradorligiga takomillashtirilgan qoziqchali-plankali barabanning uzaytirilgan qoziqchalar ta'siriga bog'lanishlari ishlab chiqilgan;

qoziqchali-plankali baraban va to'rli yuzaning asosiy ko'rsatkichlari hamda takomillashtirilgan tozalagichning sifat ko'rsatkichlarining regression modeli kichik kvadratlar usuli yordamida qurilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

paxta tarkibidagi mayda iflosliklarni tozalash samaradorligini oshirish maqsadida takomillashtirilgan qoziqchali-plankali baraban va to'rli yuza ishlab chiqilgan;

takomillashtirilgan qoziqchali-plankali barabandagi qoziqcha konstruksiyasi parametrlari aniqlangan;

takomillashtirilgan vertikal agregatning mayda iflosliklardan tozalash seksiyasida yuqori navli paxtaning tozalash samaradorligini aniqlash maqsadida ishlab chiqarish sharoitida sinovlar o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi vertikal agregatning takomillashtirilgan mayda iflosliklardan tozalash seksiyasini nazariy tadqiqotlari natijalarining amaliy sinovi, ularning mavjud va amaldagi fundamental nazariyaga mantiqan muvofiq kelishi, hisobiy ishlarda standartlashtirilgan usul va vositalardan foydalanilganligi, olingan natijalarni real iqtisodiy samara bilan ishlab chiqarishga joriy qilinishi bilan izohlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati paxtaning mavjud va taklif etilayotgan mayda iflosliklardan tozalash seksiyasi modeli, qoziqchali-plankali barabandan o'tayotgan paxta bo'lakchalarining qoziqchalar ta'sir zonasidagi harakati hamda mayda iflosliklardan tozalash seksiyasidagi parametrlar aniqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra takomillashtirilgan mayda iflosliklardan tozalash seksiyasida paxta xomashyosining tabiiy sifat ko'rsatkichlarini saqlab qolgan holda, tozalash samaradorligini oshirish hamda tozalanayotgan paxtaning oldingi barabanga qaytish jarayoni bartaraf etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi. Paxta xomashyosini vertikal tozalash usuliga ega bo'lgan takomillashtirilgan qoziqchali-plankali baraban va to'rtli yuzani vertikal agregatga o'rnatish asosida:

takomillashtirilgan paxta tozalash uskunasini Buxoro viloyati "Buxoro Agroklaster" MCHJ ga qarashli "Kogon paxta tozalash" korxonasi va "Zarxal teks" MCHJ korxonasi paxta tozalash bo'limida joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi "O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasining 2025-yil 12-noyabrda qabul qilingan №02/06-2681-sonli ma'lumotnomasi). Natijada vertikal usulda ishlovchi takomillashtirilgan paxta tozadagich ishlab chiqarish sharoitida Buxoro-10, I nav, 1- va 2-sinf paxtani tozalash ko'rsatkichi 7,3% va 6,5% ga oshishiga, tozlangan paxtada chigitning shikastlanish miqdori 0,2% va 0,25% ga kamayishiga va iflosliklardagi tolali chiqindilarning oshish miqdori mos ravishda 0,02% va 0,03% kamayishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shundan 2 ta maqola xorijiy jurnallarda chop etilgan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk markazining dasturiy mahsulotiga 1 ta mualliflik guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 109 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslab berilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ifodalangan. Olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining "Adabiyotlar tahlili" deb nomlangan birinchi bobida mahalliy va xorijiy paxta tozalash texnologiyalarida ishlatiladigan tozalagichlar tahlili, paxtani mayda iflosliklardan tozalagich ish unumdorligini oshirish yo'llaridan biri- tozalagichda ketma-ket tozalash texnologiyasini qo'llash afzalligi ko'rsatilgan. O'tkazilgan tadqiqotlar tahlili mavjud uskunalardagi o'rnatilgan to'rtli yuza

konstruksiyasi xususida yetarlicha izlanishlar olib borilmaganligini ko'rsatdi. Hozirgi kunda ishlatilayotgan paxtani mayda iflosliklardan tozalovchi tozalagichlar tahlili shuni ko'rsatdiki, ularda qoziqchali-plankali barabanlar bilan to'rtli yuzaning ishchi zonasi 100 gradusdan oshmaydi. O'tkazilgan tadqiqotlarga qaramasdan mavjud chet el va mahalliy uskunalarda o'rnatilgan to'rtli yuzaning ishchi zonasi konstruksiyasi va shakllari o'zgarmaganligi, ya'ni bir xilligi aniqlandi va elektr-energiya sarfi yuqori ekanligini kuzatildi. Yuqori navli paxtani tozalash jarayonida vertikal agregatning ishchi qismlarining paxtani mayda iflosliklardan tozalash samaradorligiga qisman salbiy ta'siri mavjudligi aniqlangan.

Dissertatsiyaning **“Vertikal agregatdagi qoziqchali-plankali barabanda hosil bo'layotgan dinamik jarayonlarning nazariy tadqiqotlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida nazariy tadqiqotlarda taxminlar asosida bo'lakcha ikkita o'zgarmas aylanma tezlikda harakatda bo'lgan qoziqcha orasida o'rnatilgan bo'lib, bo'lakcha qoziqcha bilan bir xil aylanma harakatdan tashqari qoziqcha sirti bo'ylab radial yo'nalishda ham harakat qiladi (1-rasm). Bo'lakchaga ta'sir qiluvchi kuchlar quyidagilar: mg , – paxta bo'lakchasi og'irlik kuchi massasi, $Q_r^{(2)}$ –Koriolis kuchi, $Q_r^{(3)}$ – Elastik kuchi.


Bo'lakchaning yoy tekisligidagi polyar koordinatalari:

$$x = r \sin(\omega t + \varphi_0), y = r \cos(\omega t + \varphi_0)$$

Bu yerda $r = r(t)$ bo'lakchaning markazi, M bo'lakchaning radius bo'ylab ko'chishi, ω –barabanning burchak tezligi, φ_0 – qoziqchanning vertikal o'q bilan tashkil etgan boshlang'ich burchagi.

Massasi m ga teng bo'lgan bo'lakchanning kinetik energiyasini aniqlaymiz:

$$T = \frac{m}{2} (\dot{x}^2 + \dot{y}^2) = \frac{m}{2} (\dot{r}^2 + r^2 \omega^2) \quad (1)$$



1-Rasm. Paxta bo'lakchasining qoziqchalar orasidagi harakat sxemasi

r ni umumlashgan koordinata deb qabul qilamiz va uning yo'nalishidagi kuchlarini aniqlaymiz:

1. Og'irlik kuchi va uning ta'siridagi ishqalanish kuchlari.

$$Q_r^{(1)} = -mg[\cos(\omega t + \varphi_0) + f \sin(\omega t + \varphi_0)] \quad (2)$$

2. Koriolis kuchi qoidaga ko‘ra radius vektoriga normal yo‘nalgan bo‘lib, Koriolis qonuniga ko‘ra bo‘lakchada ishqalanish kuchini hosil qiladi.

$$Q_r^{(2)} = -2fm\dot{r}\omega \quad (3)$$

3. Paxta bo‘lakchasi va to‘rli sirt orasidagi qattqlik koeffitsiyenti k_0 bo‘lgan elastik kuch

$$Q_r^{(3)} = -k_0r \quad (4)$$

$r = r(t)$ funksiyani aniqlash uchun Lagranjning II tur tenglamasini tuzamiz:

$$\frac{d}{dt} \left(\frac{\partial T}{\partial \dot{r}} \right) - \frac{\partial T}{\partial r} = Q_r^{(1)} + Q_r^{(2)} + Q_r^{(3)} \quad (5)$$

(1)-(4) ifodalarni (5) tenglikka qo‘yib $r(t)$ funksiyaga nisbatan 2 tartibli differensial tenglama olamiz:

$$m\ddot{r} - mr = -mg[\cos(\omega t + \varphi_0) + f\sin(\omega t + \varphi_0)] - 2fm\dot{r}\omega \quad (6)$$

(5) tenglamani quyidagi ko‘rinishga keltiramiz ($\omega_0 = \sqrt{k_0/m}$)

$$\ddot{r} + 2f\dot{r}\omega - (\omega^2 - \omega_0^2)r = -g[\cos(\omega t + \varphi_0) + f\sin(\omega t + \varphi_0)] \quad (7)$$

(7) tenglama chiziqli bo‘lib, uning umumiy yechimini quyidagi yig‘indi ko‘rinishida ishlaymiz:

$$r = \bar{r}(t) + \hat{r}(t) \quad (8)$$

bu yerda $\bar{r}(t)$ funksiya bir jinsli

$$\ddot{\bar{r}} + 2f\dot{\bar{r}}\omega - (\omega^2 - \omega_0^2)\bar{r} = 0 \quad (9)$$

tenglamaning yechimi, $\hat{r}(t)$ funksiya esa ushbu bir jinsli emas

$$\ddot{\hat{r}} + 2f\dot{\hat{r}}\omega - (\omega^2 - \omega_0^2)\hat{r} = -g[\cos(\omega t + \varphi_0) + f\sin(\omega t + \varphi_0)] \quad (10)$$

tenglamaning xususiy yechimi va uning ko‘rinishi quyidagicha bo‘ladi:

$$\hat{r} = A\cos(\omega t + \varphi_0) + B\sin(\omega t + \varphi_0)$$

bu yerda

$$A = g \frac{2f^2\omega^2 - \omega_0^2 + 2\omega^2}{(\omega_0^2 - 2\omega^2)^2 + 4f^2\omega^4}, B = \frac{fg(4\omega^2 - \omega_0^2)}{(\omega_0^2 - 2\omega^2)^2 + 4f^2\omega^4} \quad (11)$$

(9) tenglamani umumiy yechimi fizik kattaliklar- ω, ω_0 va f larga bog‘liq bo‘ladi. Uning yechimini $\bar{r} = \exp(\lambda t)$ ko‘rinishida ishlaymiz. Bu ifodani (9) tenglamaga qo‘ysak, λ ga nisbatan kvadrat tenglama olamiz:

$$\lambda^2 + 2f\omega\lambda - (\omega^2 - \omega_0^2) = 0$$

bu tenglamaning yechimi quyidagicha bo‘ladi:

$$\lambda_1 = -\omega \left(f + \sqrt{f^2 + \left(1 - \frac{\omega_0^2}{\omega^2}\right)} \right), \lambda_2 = -\omega \left(f - \sqrt{f^2 + \left(1 - \frac{\omega_0^2}{\omega^2}\right)} \right)$$

λ - sonining haqiqiy yoki kompleks bo‘lishi nisbati $\frac{\omega_0}{\omega}$ qiymatlariga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun ushbu hollarni ko‘rib chiqamiz:

$\frac{\omega_0}{\omega} < 1$. Bu holda ildiz ostidagi ifodalar musbat bo‘lib, $\lambda_1 < 0, \lambda_2 > 0$ shartlar bajariladi, $\lambda_1 = -\alpha, (\alpha > 0), \lambda_2 = \beta > 0$ bilan belgilab (9) tenglamaning umumiy yechimini quyidagicha olamiz:

$$\bar{r} = C_1 \exp(-\alpha t) + C_2 \exp(\beta t)$$

Shunday qilib, (7) tenglamaning umumiy yechimi quyidagicha bo‘ladi:

$$r = C_1 \exp(-\alpha t) + C_2 \exp(\beta t) + A\cos(\omega t + \varphi_0) + B\sin(\omega t + \varphi_0)$$

C_1 va C_2 o'zgarmlarni aniqlash uchun ushbu boshlang'ich shartlardan foydalanamiz:

$$r(0) = r_1, \dot{r}(0) = 0$$

Bu holda C_1 va C_2 ushbu tenglamalarni qanoatlantiradi:

$$\begin{aligned} C_1 + C_2 &= r_1 - A\cos\varphi_0 - B\sin\varphi_0 \\ -\alpha C_1 + \beta C_2 &= \omega (A\sin\varphi_0 - B\cos\varphi_0) \end{aligned}$$

Bu sistemadan C_1 va C_2 o'zgarmlarni aniqlaymiz:

$$C_1 = \frac{a_0\beta - b_0}{\alpha + \beta}, C_2 = \frac{b_0 + a_0\alpha}{\alpha + \beta}$$

$$a_0 = r_1 - A\cos\varphi_0 - B\sin\varphi_0, b_0 = \omega (A\sin\varphi_0 - B\cos\varphi_0)$$

$$1 < \frac{\omega_0}{\omega} < 1 + f^2$$

Bu holda (11) tenglama yechimlari quyidagicha bo'ladi:

$$\lambda_1 = -\omega(f + \sqrt{f^2 - (\frac{\omega_0^2}{\omega^2} - 1)}), \lambda_2 = -\omega(f - \sqrt{f^2 - (\frac{\omega_0^2}{\omega^2} - 1)})$$

Ildizlar quyidagicha tanlanadi: $\lambda_1 = -\alpha_1, \lambda_2 = -\beta_1$ ($\alpha_1 > 0, \beta_1 > 0$).

(7) tenglamaning umumiy yechimi:

$$r = C_1 \exp(-\alpha_1 t) + C_2 \exp(-\beta_1 t) + A\cos(\omega t + \varphi_0) + B\sin(\omega t + \varphi_0)$$

C_1 va C_2 o'zgarmlar quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$C_1 = \frac{a_0\beta_1 + b_0}{\beta_1 - \alpha_1}, C_2 = \frac{b_0 + a_0\alpha_1}{\alpha_1 - \beta_1}$$

$$\frac{\omega_0}{\omega} > 1 + f^2$$

Bu holda (11) tenglama yechimlari kompleks ildizlar bo'ladi.

$$\lambda_1 = -\omega(f + i\sqrt{(\frac{\omega_0^2}{\omega^2} - 1) - f^2}), \lambda_2 = -\omega(f - i\sqrt{(\frac{\omega_0^2}{\omega^2} - 1) - f^2})$$

Ushbu belgilashlar

$$\lambda_1 = -\alpha_0 - i\beta_0, \lambda_2 = -\alpha_0 + i\beta_0$$

orqali (7) tenglama yechimini topamiz:

$$r = \exp(-\alpha_0 t)(C_1 \cos\beta_0 t + C_2 \sin\beta_0 t) + A\cos(\omega t + \varphi_0) + B\sin(\omega t + \varphi_0) \quad (12)$$


C_1 va C_2 o'zgarmlar quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$C_1 = a_0, C_2 = (a_0\alpha_0 + b_0)/\beta_0,$$

Bo'lakchanning to'liq tezligi ushbu formula yordamida hisoblanadi:

$$v = \sqrt{\dot{r}^2 + \omega^2 r^2} \quad (13)$$

Hisoblarda baraban markazidan to'rli sirtgacha (2-rasm) bo'lgan masofa $R_c = 0.106m$ nisbat $\frac{\omega_0}{\omega}$ ikkita va qoziqcha uzunligi $l=AB$ ning turli qiymatlaridagi bo'lakcha to'liq tezligining (15) formula yordamida vaqt t (sek) bo'yicha o'zgarish grafiklari 3-rasmda keltirilgan. Hisoblashda bo'lakcha markaziy nuqtasi qoziqchadan o'tadigan yoyda yotadi deb qabul qilingan va bu nuqtani radius bo'yicha maksimal ko'chishi $r_{max} = 0.192m$ ga teng bo'lishi aniqlangan.




Rasm 2. Mavjud a) hamda taklif etilayotgan b) uskunaning asosiy ishchi organlari sxemasi


3-rasmda keltirilgan grafiklar tahlilidan masofa r_1 oshsa, uning ko'chishi va tezligi 4-5% oshishi kuzatilyapti, foydalangan fizik kattaliklarda chastotaning $\omega_0 = \sqrt{k/m} \geq 0.965\omega$ qiymatlarida bo'lakchanning markaziga nisbatan maksimal ko'chishi $0.192m$ ga teng bo'lib, bu parametr oshsa, bo'lakchanning ko'chishi va tezligi kamayishi mumkin. Demak, bo'lakcha tozalash zonasida aylanma harakatdan tashqari radial yo'nalishdagi harakat mavjud bo'lsa, to'rtli yuza sirtidan bo'lakchaga ta'sir etadigan normal elastik kuch e'tiborga olinsa, bo'lakcha tezligi elastik kuchning qiymatiga qarab oshishi yoki kamayishi mumkin ekan.

$$\omega_0 = 0.965\omega$$

$$\omega = 40 \left(\frac{1}{c}\right)$$

$$\omega = 42 \left(\frac{1}{c}\right)$$







$\omega = 40 \text{ 1/c}$

$\omega_0 = \omega$

$\omega = 42 \text{ 1/c}$




Rasm 3. Paxta bo‘lakchasining ko‘chishi $r(m)$ (a) va tezlining $v(\frac{m}{s})$ (b) baraban tezligi va parametr ($\omega_0 \text{ 1/c}$) larning ikkita, masofa $r_1(m)$ ning turli qiymatlarida vaqt $t(sek)$ ga nisbatan o‘zgarish grafiklari: $1 - r_1 = 0.145$, $2 - r_1 = 0.155$, $3 - r_1 = 0.165$, $4 - r_1 = 0.175$, $5 - r_1 = 0.185$

Faraz qilaylik, paxta bo‘lakchasi qozichaning A nuqtasidan ajralsin, tozalash zonasi tashqarida harakatlansin. Bo‘lakchaga OY o‘qi bo‘ylab uning faqat og‘irlik kuchi ta’sir etsin. $t = 0$ momentda, A nuqtada, AB yo‘nalishda tezligi (Rasm 4) $v_0 = v(t_0)$ bo‘lgan bo‘lakcha yo‘naltirgich OX ning θ nuqtasidan harakatlansin. Koordinata boshini θ nuqtaga o‘rnatish OX o‘qini gorizont va OY o‘qini unga perpendikulyar qilib yuqoriga yo‘naltiramiz. $t > 0$ momentda


bo‘lakcha yo‘naltirgichda ajralib erkin fazoda OC trayektoriya bo‘ylab harakatlansin va uning ixtiyoriy nuqtasi koordinatalarini $M(x,y)$ belgilaymiz. Tezlikning Ox yo‘nalishdagi proyeksiyalari $v_{OB} = v_0 \cos\psi$ ni e‘tiborga olib, koordinata o‘qlari bo‘ylab uning boshlang‘ich tezliklari ifodasini yozamiz: $\dot{x} = \dot{x}_0 = -v_0 \cos\psi \cos\varphi_0(\varphi_0 - \psi)$, $\dot{y} = \dot{y}_0 = -v_0 \cos\psi \sin\varphi_0(\varphi_0 - \psi)$. Bu holda uning trayektoriyasi quyidagi parabola ko‘rinishida bo‘ladi:


$$y = -\frac{gx^2}{\dot{x}_0^2} + x \operatorname{tg}(\varphi_0 - \psi)$$



Rasm 4. Bo‘lakchanning $t = 0$ yo‘naltirgichda o‘rnashgan holati

5-rasmda paxta bo‘lakchasining erkin fazodagi trayektoriya (ω va ω_0) larining ikkita va masofa $r_1(m)$ ning turli qiymatlarida vaqt $t(sec)$ ga nisbatan o‘zgarish grafiklari keltirigan. Grafiklar tahlilidan bo‘lakchanning fazodagi trayektoriyasi parabola ko‘rinishida bo‘lib, masofa r_1 oshganda uning koordinata o‘qiga teskari harakatlanishi yuqori darajada bo‘lishi mumkinligi aniqlangan








5-rasm. Paxta bo‘lakchasining parametri ($\omega_0 \text{ 1/c}$) ikkita va masofa $r_1(m)$ ning turli qiymatlaridagi $y = f(x)$ trayektoriyalari: $1 - r_1 = 0.145$, $2 - r_1 = 0.155$, $3 - r_1 = 0.165$, $4 - r_1 = 0.175$, $5 - r_1 = 0.185$

O‘tkazilgan nazariy tadqiqotlar asosida mavjud paxta xomashyosi paxta bo‘lakchalari oqimi harakati modelidan farqli o‘laroq, qutb koordinatalarida murakkab harakatning ikki o‘lchovlilikini hisobga olgan holda, paxta xomashyosi va to‘rli yuzasi o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sirning yanada murakkablashgan modeli taklif etildi. Aniqlanishicha, tozalash zonasida paxta bo‘lakchalari harakatining qo‘shimcha komponentini hisobga olish paxta bo‘lakchalari tezligining 5-8% ga oshishiga olib keladi. Bu esa paxta bo‘lakchasi yoki paxta bo‘lakchalari tizimini iflosliklardan tozalash intensivligini oshirishga sabab bo‘ladi. Radial yo‘nalishda qo‘shimcha oqim tezligining mavjudligi uni keyingi tozalash zonasiga o‘tkazishda bo‘shliqdagi paxta bo‘lakchalari harakatining trayektoriyasiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatishi aniqlandi.


Vertikal paxta tozalash texnologiyasining ushbu kamchiliklariga ta‘sir qiluvchi sabablar va omillarni aniqlash uchun Rocky DEM dasturidan foydalangan holda ishchi organlarning vertikal joylashuvi bilan paxtadan mayda iflosliklarni tozalash uchun modernizatsiya qilingan paxta tozalash mashinasida sodir bo‘ladigan jarayonlarni 3D modellashtirishdan foydalangan holda dinamik tahlil o‘tkazildi va vertikal paxta tozalagichning ish unumdorligi 57 foizgacha kamaygan taqdirda ham, yakka chigitli paxtaning ma‘lum qismi oldingi barabanga qaytish holatini isbotlagan. Bu esa paxta tozalashga salbiy ta‘sir qilishiga olib kelgan. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida, ishlab chiqarishdagi mavjud diametri 400 mm va qoziqchalarning balandligi 50 mm bo‘lgan ketma-ket qoziqli barabanlarda tashilgan va tozalangan paxta hajmi yetarli emasligi hamda qoziqchalarni uzaytirish zaruriyati borligi aniqlangan.

Paxtani mayda iflosliklardan tozalashda ketma-ket qoziqchali baraban konstruksiyasining nomukammalligi tufayli vertikal paxta mayda iflosliklardan tozalash jarayonida barcha barabanlarda tozalanayotgan paxta qatlamidan hosil bo‘lgan kuch (bosim) ning sezilarli ta‘siri mavjud bo‘lib, uskunaning ish unumdorligi maksimal 7 t/soat bo‘lganda paxtani mayda iflosliklardan tozalash va tashishda

asosiy kuch (bosim) birinchi barabanga (3000 W) tushadi. Uchinchi barabandan chiqqanda u 15 martaga kamayganligi hamda 200 W ni (6-7 rasmlar) tashkil qilganligi aniqlangan. Uskunaning ish unumdorligi minimal 4 t/soat bo'lganda paxtani tashish va mayda iflosliklardan tozalashda u birinchi barabanda kuch (bosim) (350 W) paydo bo'lishi va uchinchi barabandan chiqqanda 6 marta kamayishi hamda bu ko'rsatkich 60 W ni tashkil etishi kuzatilgan. Vertikal paxta tozalagichning samarali hamda paxtani vertikal usulda to'liq ishlashini va mayda iflosliklardan tozalashni ta'minlaydigan uzaytirilgan qoziqchali barabanning takomillashtirilgan konstruksiyasining yaratilish zaruriyati borligi isbotlangan.




6-rasm. Birinchi qoziqli barabanning ishlash modeli:
 $P = 7 \text{ t / soat}$, $W = 3000 P_a$ va
 $\Delta Q = 18\%$ da




7-rasm. Uchinchi qoziqli barabanning ishlash modeli:
 $P = 7 \text{ t / soat}$, $W = 200 P_a$ va
 $\Delta Q = 3\%$ da

Takomillashtirilgan qoziqchali barabanlarda tozalanayotgan paxta qatlamidan hosil bo'lgan kuch (bosim) ning minimallashtirilishi va paxtani tozalashda mayda iflosliklardan tozalash samaradorligini oshirishga erishilishi isbotlangan. Takomillashtirilgan qoziqchali barabanlarda tozalanayotgan paxta qatlamidan hosil bo'lgan kuch (bosim)ni minimallashtirilish evaziga elektr energiyasi sarfi 1-1,5 foizga kamayishi aniqlangan.

Mashinaning minimal quvvati 4 t/soat bo'lgan (8, 9-rasmlar) vertikal paxta tozalagich qoziqchali barabanlarini mayda iflosliklardan tozalashdagi o'zgarishlar shuni ko'rsatadiki, vertikal tozalagichning minimal ish rejimlarida tozalangan paxta qatlami va tozalanayotgan paxtaga qaytgan paxtaning ma'lum bir foizi borligi kuzatildi. Bu vertikal paxta tozalagichning ish unumdorligi 57 foizgacha kamaygan taqdirda ham yakka chigitli paxtani ma'lum qismi avvalgi barabanga qaytish holatini isbotladi, bu esa paxtani mayda iflosliklardan tozalash jarayoniga salbiy ta'sir qilishini isbotlaydi.



8-rasm. Minimal 4 t/soat mashina ish unumdorligidagi paxtani mayda iflosliklardan tozalovchi mashinaning qoziqchali barabanlaridagi paxta qatlami tomonidan ta'sir etuvchi kuch (bosim) o'zgarishi ko'rsatkichlari



9-rasm. Minimal 4 t/soat mashina ish unumdorligidagi paxtani mayda iflosliklardan tozalovchi mashinaning qoziqchali barabanlaridagi oldingi barabanga qaytadigan tozalangan paxta foizining o'zgarish ko'rsatkichlari

Dissertatsiyaning “Vertikal agregatning takomillashtirilgan ishchi qismlarini ishlab chiqish, tajriba-sinovlarini o'tkazish va iqtisodiy samaradorlik hisobi” deb nomlangan uchinchi bobida vertikal agregatdagi mayda iflosliklardan tozalash seksiyadagi to'rtli yuzaning konstruktiv ko'rsatkichlari va tozalash samaradorligiga ta'siri o'rganilgan. Tajribalar 10,11-rasmlarda ko'rsatilgan laboratoriya stendida o'tkazildi. Tajriba uchun ikkitadan to'rtta qoziqchali baraban (mavjud va takomillashtirilgan) uchun mavjud vertikal va gibrid shaklda bo'lgan to'rtli yuzalar tayyorlandi (12-rasm).


Laboratoriya uskunasiidagi arrachali va qoziqchali baraban va boshqa ishchi elementlarning geometrik o'lchamlari tezliklari 1 XK uskunasini qoziqchali baraban seksiyalari kabi bo'lib, faqat barabanlar uzunligi 300 mm ni tashkil etgan.

Tajriba quyidagi tartibda o'tkazildi. Inventer yordamida uskunaning 6 t/soat va 4 t/soat paxta o'tkazishini belgilovchi ta'minlagich valiklari aylanish sonlari aniqlandi.

Vertikal usulda ishlovchi takomillashtirilgan paxta tozadagichning ishlab chiqarish sharoitida olingan ko'rsatkichlari Buxoro-10 seleksion navi, I sanoat navi, 1 – sinf va I nav 2 - sinf qo'l terimida olingan. Qayta ishlanayotgan paxtaning boshlang'ich ko'rsatkichlari quyidagilarni tashkil etgan: keltirilgan ketma-ketlikda - iflosligi 2,98% va 6,42%, namligi 8,16% va 8,67% ni tashkil etgan. Vertikal usulda ishlovchi takomillashtirilgan paxta tozadagichning ishlab chiqarish sharoitida olingan ko'rsatkichlari 1 - jadvalda keltirilgan.



10-rasm. Vertikal iflosliklardan tozalovchi agregatning ko‘rinishi



11-rasm. Paxtani mayda iflosliklardan tozalovchi tajriba o‘tkazish standining sxemasi



Mavjud setkaning ko‘rinishi



Teshiklari vertikal joylashgan setkaning ko‘rinishi



Teshiklari gibrud joylashgan setkaning ko‘rinishi

12-rasm. Mavjud, vertikal va teshiklari gibrud shaklda joylashgan to‘rli yuzalarning umumiy ko‘rinishi

Paxta tozalashning mavjud (vertikal) va takomillashtirilgan (vertikal) agregatlari yordamida tozalash natijasida iflosliklardagi tolali chiqindilarning oshish miqdori qiyosiy jadvali shuni ko‘rsatadiki, I nav, I va II sinf paxtani tozalash paytida paxtani oldingi barabanga qaytishini kamaytirish, qoziqchali-plankali baraban hamda to‘rli yuza takomillashtirilganligi hisobiga paxta iflosligi mos ravishda (2,98% dan 0,65 % ga va 6.42 % dan 0,98% ga) kamaygan.

Vertikal usulda ishlovchi takomillashgan paxta tozalagichning ishlab chiqarish sharoitida olingan ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Seleksion navi, sanoat navi, sinf va paxtani yig'ib olish usuli			
	Buxoro-10, I nav 1-sinf, qo'l terimi		Buxoro-10, I nav 2-sinf, qo'l terimi	
	Vertikal tozalash agregati	Takomillashgan agregat ko'rsatkichlari	Vertikal tozalash agregati	Takomillashgan agregat ko'rsatkichlari
Tozalashgacha bo'lgan boshlang'ich sifat ko'rsatkichlari:				
- namligi, %	8,16	8,16	8,67	8,67
- iflosligi, %	2,98	2,98	6,42	6,42
- chigit shikastlanishi, %	0,2	0,2	0,3	0,3
- iflosliklardagi tolali chiqindilar miqdori, %	0,12	0,12	0,14	0,14
Tozalashdan keyingi sifat ko'rsatkichlari:				
- namligi, %	8,04	8,04	8,4	8,4
- iflosligi, %	0,71	0,65	1,1	0,98
- chigit shikastlanishi, %	0,7	0,5	0,9	0,7
- iflosliklardagi tolali chiqindilar miqdori, %	0,33	0,3	0,36	0,31
Tozalagichning texnologik ko'rsatkichlari:				
- namlik pasayish miqdori, %	0,12	0,12	0,27	0,27
- umumiy tozalash samaradorligi, %	76,2	83,5	89,3	95,8
- chigit shikastlanishining oshish miqdori, %	0,5	0,3	0,6	0,4
- iflosliklardagi tolali chiqindilarning oshish miqdori, %	0,21	0,19	0,22	0,20

Umumiy xulosalar

Vertikal usulda ishlayotgan tozalash agregati mavjud hamda takomillashtirilgan to'rtli yuzalarining mavjud va takomillashtirilgan qoziqchali-plankali barabanlardagi paxtani mayda va yirik iflosliklardan tozalash samaradorligiga ta'siri o'rganilganda quyidagi ijobiy natijalar olindi:

1. O'tkazilgan tadqiqotlar tahlili mavjud uskunalardagi o'rnatilgan qoziqchali-plankali baraban va to'rtli yuza konstruksiyasi xususida etarlicha izlanishlar olib borilmaganligini ko'rsatdi. Yuqori navli paxtani tozalash uchun ishlab chiqilgan vertikal agregatdagi mavjud diametri 400 mm va qoziqchalarning balandligi 50 mm bo'lgan ketma-ket qoziqchali-plankali barabanlarda tozalanayotgan paxtaning ma'lum qismi oldingi barabanga qaytayotganligi kuzatildi.

2. Mavjud paxta xomashyosi paxta bo‘lakchalari oqimi harakati modelidan farqli o‘laroq, qutb koordinatalarida murakkab harakatning ikki o‘lchovlilikini hisobga olgan holda, paxta xomashyosi va to‘rli yuzasi o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sirning yanada murakkablashgan modeli taklif etildi. Tozalash zonasida paxta bo‘lakchalari harakatining qo‘shimcha komponentini hisobga olish evaziga paxta bo‘lakchalari tezligi 5-8% ga oshdi hamda paxta yakka bo‘lakchasi yoki paxta bo‘lakchalarini iflosliklardan tozalash intensivligi oshishiga olib keldi.

3. Takomillashtirilgan qoziqchali barabanlarda tozalanayotgan paxta qatlamidan hosil bo‘lgan kuch (bosim)ning minimallashtirilishi evaziga elektr energiya sarfi 1-1,5 foizga kamaydi. O‘tkazilgan ko‘p omilli tajribalar natijasi bo‘yicha X_1 – qoziqchanning uzunligi - 80 mm, X_2 – uskunaning ish unumdorligi – 4 t/soat, X_3 - paxta iflosligi - 10 % tashkil etganda, vertikal tozalash agregatining paxtani mayda iflosliklardan tozalash seksiyasida tozalanayotgan paxtaning oldingi barabanga qaytish foizi 0,01% ni - eng past ko‘rsatkichni tashkil etdi.

4. Qo‘lda terilgan paxtani tozalash natijalariga ko‘ra 4 t/soat ish unumdorligida takomillashtirilgan paxta tozalash agregatida turli shakldagi to‘rli yuzalar bilan jihozlangan paxtani mayda va yirik iflosliklardan tozalash seksiyalarida eng yuqori tozalash samaradorligiga gibrid shakldagi to‘rli yuza va 80 mm lik qoziqchalar bilan jihozlangan qoziqchali-plankali barabanlarda erishildi. Ushbu ko‘rsatkich agregatning ish unumdorligi 4 t/soat bo‘lganda 92,8% ni tashkil etdi, bu esa mavjud to‘rli yuza va mavjud qoziqchali-plankali barabanlardagi tozalash samaradorligiga (88,3%) nisbatan 4,5 % ga yuqoriligini ko‘rsatdi.

5. O‘tkazilgan sinovlar natijalariga ko‘ra past (3 t/soat), o‘rta (5 t/soat) va yuqori (7 t/soat) unumdorlikda qoziqchali barabanlardagi oldingi barabanga qaytadigan paxta foizi qiyosiy tahlili bo‘yicha takomillashtirilgan vertikal joylashuvga ega tozalagichda paxtaning oldingi qoziqchali-plankali barabanda mavjud vertikal tozalagichga nisbatan o‘rtacha 22 barobar kamayishiga erishildi.

6. Takomillashtirilgan qoziqchali baraban ishlab chiqarishga tatbiq etilganda qayta ishlanayotgan paxta xomashyosidan olinayotgan tolaning sifat ko‘rsatkichlari yaxshilanishi va elektr energiya tejalishi hisobiga 1 tonna paxta uchun 78519 so‘m iqtisodiy samaraga erishildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.T.21.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ИНСТИТУТЕ
ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ

АБДУЛЛАЕВ ЯШИН БАХРОМОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ РАБОЧИХ ОРГАНОВ ВЕРТИКАЛЬНОГО
АГРЕГАТА ДЛЯ ЭФФЕКТИВНОЙ ОЧИСТКИ ВЫСОКИХ СОРТОВ
ХЛОПКА**

**05.02.03 – Технологические машины. Роботы, мехатроника и
робототехнические системы**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (Phd) ПО
ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Бухоро – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2025.3.PhD/Г5924

Диссертация выполнена в Бухарском государственном техническом университете.
Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-сайте Ташкентского института текстильной и легкой промышленности (www.titli.uz) и на Информационно-образовательном портале "Ziyouet" (www.ziyouet.uz).

Научный консультант:

Усманов Хайрулла Сайдуллаевич
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Бахадиров Гайрат Агаханович
доктор технических наук, профессор

Ибрагимов Фарход Хайруллоевич
доктор технических наук, доцент

Ведущая организация:

Джиззахский политехнический институт

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.1.21.01 при Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности 14 мая 2026 года в 10:00. (Адрес: 100100, г. Ташкент, ул. Шохжахон-5, здание 1, аудитория 222. Тел.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08; факс: 253-36-17; e-mail: titli_info@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского института текстильной и легкой промышленности (зарегистрирована под № 293). Адрес: 100100, г. Ташкент, ул. Шохжахон-5. Тел.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08.

Автореферат диссертации разослан 28 апреля 2026 года
(протокол реестра № 293 от 28 апреля 2026 года).



Х.Х. Камиллова
член диссертационного совета по присуждению
ученых степеней, д.т.н., профессор

А.З. Мамагов
Ученый секретарь научного совета по
присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

Ш.Ш. Хакимов
Председатель научного семинара при научном совете
по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мировой практике на предприятиях первичной переработки хлопка одной из наиболее актуальных задач является эффективная очистка хлопка от примесей и получение высококачественного волокна. Ежегодно в мире производится около 24 млн. тонн хлопкового волокна, в связи с чем требуется внедрение в производство современных установок, обеспечивающих эффективную, энерго- и ресурсосберегающую очистку хлопка от имеющихся загрязнений и дефектов. В этой связи особое значение приобретает обеспечение устойчивого развития хлопководства, внедрение на предприятиях отрасли современных энергосберегающих технологических средств, а также увеличение выхода семян хлопчатника и короткого пуха, получаемых из семенного хлопка. Исходя из указанных задач, на предприятиях мировой хлопкоочистительной промышленности уделяется особое внимание модернизации высокоэффективного оборудования для очистки хлопка, а также рациональному использованию ресурсосберегающих компактных конструктивных решений.

В мировом масштабе проводятся научно-исследовательские работы, направленные на совершенствование техники и технологии первичной переработки хлопка, внедрение современных технических средств и технологий, а также повышение эффективности использования производственного потенциала. В данных направлениях, в частности, актуальными являются исследования по совершенствованию оборудования для очистки хлопка от примесей, а также модернизации ресурсосберегающих вертикальных агрегатов. При этом особое внимание уделяется разработке эффективных устройств для очистки хлопка от загрязнений, созданию ресурсосберегающих конструкций рабочих органов, а также внедрению современных вертикальных методов в технологический процесс очистки хлопка.

В Республике Узбекистан реализуется комплекс мер, направленных на развитие отрасли первичной переработки хлопка, модернизацию хлопкоочистительных предприятий, внедрение современных форм организации производства и обеспечение конкурентоспособности выпускаемой продукции. В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы, в частности, в направлении ускоренного развития национальной экономики и обеспечения высоких темпов роста определены следующие приоритетные задачи: «...двукратное увеличение объемов производства продукции текстильной промышленности, а также широкое внедрение программ по повышению производительности труда в отраслях промышленности».

